

Sadoqat DO'STYOROVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchi
E-mail: Sadoqat1992@gmail.com
Tel: (99) 7730405

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti Z.Kenjayeov taqrizi asosida

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING INSON MA'NAVIV DUNYOSINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola milliy o'zlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilishning maqsad va vazifalari masalasiga bag'ishlangan. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tarixiy zarurat, mavjud muammolar va ularning yechimi bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosi, millat taraqqiyoti, tarixiy xotira, milliy ong, milliy g'urur, identlik, individual ong.

ЗНАЧЕНИЕ ПОНИМАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОГО МИРА ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

Статья посвящена вопросу понятия национальной идентичности, ее составляющих, а также целей и задач реализации национальной идентичности. Представлены мнения связанные с исторической необходимостью реализации национальной идентичности, существующих проблем и их решений.

Ключевые слова: Самосознание, национальная идентичность, наследие предков, национальное развитие, историческая память, национальное сознание, национальная гордость, идентичность, индивидуальное сознание.

THE IMPORTANCE OF UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN SPIRITUAL WORLD

Annotation

The article is devoted to the issue of the concept of national identity, its components, as well as the goals and objectives of the implementation of national identity. Opinions related to the historical need to realize national identity, existing problems and their solutions are presented.

Key words: Self-awareness, national identity, ancestral heritage, national development, historical memory, national consciousness, national pride, identity, individual consciousness.

Kirish. Insonning ma'naviy olami to'g'risidagi masalalar barcha davrlar uchun o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Inson xulq-atvori, ichki-ruhiy kechinmalari, tafakkuri, iqtidori va ijodkorlikka xos bo'lgan xususiyatlarini har bir davr mutafakkirlari o'z zamonasi taraqqiyot darajasidan va kelajak to'g'risidagi tasavvurlaridan kelib chiqib tahlil qilgan va o'rgangan. Tarixiy zaruriyat ostida insonning jamiyat va bilan kishilar bilan munosabatlari jarayonida o'zini nazorat etish va o'zini idora qilish kabi hayotiy muhim vosita sifatida paydo bo'lgan. Agar mehnat va jamiyat paydo bo'lmaganida kishida o'zlikni anglash ham shakllanmas edi. Shunday ekan, o'zlikni anglash jamiyat va haqiqiy insoniy mehnat ham muvaffaqiyatli rivojlanmas edi. Kishidagi individual ong, o'zlikni anglash o'z-o'zini - o'zini nazorat etish, boshqarish tarixiy rivojlanish jarayonida, mehnat va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllana borgan.

Muhokama va natijalar. Aslida inson o'z turmushi va jamiyat hayotini doimo o'zicha idrok etib kelgan. Atroftida sodir bo'layotgan narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglab tushunib olishga harakat qilgan va o'z munosabatini bildirgan. O'rganayotgan narsalarni hayolan yoki aqli, fahm-farosati yordamida turlarga ajratgan, o'xshash narsalarni esa turli guruhlarga kiritgan, tahlil qilgan va umumlashtirgan. Ularga umumiy nom berib, sinflarda, tabaqalarga bo'lgan. Shu jarayonda turli xil tushunchalar, atamalar vujudga kelgan. Bunga sabab, birinchidan, inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan narsalardan bir qismi uning yashashi, moddiy ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan. Ikkinchidan, moddiy buyumlar qanchalik muhim, zarur bo'lmasin odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, sodiqligi, qo'llab-quvatlashi, birgalikda harakat qilishi hamda insonning aqli, fahm-farosati, qiziqishi, ichki ruhiy kechinmalari, hayotiy dunyosi va hokozalar ham nihoyatda zarurligini anglab yetgan.

Inson aqliy, ruhiy, hissiy dunyosini, imon-e'tiqodini rivojlantirish jarayonida uni har xil tushunchalar bilan ifodalagan. Ulardan ba'zi tushunchalar ancha umumiy va keng bo'lgan bo'lsa, ba'zi birlari inson ichki dunyosining aniq bir tomonlarini, qirralarini, yoki aniq holatini ifodalagan. Eng umumiy tushunchalardan biri sifatida "ma'naviyat" tushunchasi vujudga kelgan. O'z navbatida ma'naviyatning turli jihatlari, tomonlari, maqomi, bosqichlari ilm-fanda, adabiyotda, falsafada o'z aksini topgan. Masalan: hirs, nafs, ibo, hayo, sadoqat, vafo, imon, e'tiqod, sahiylik, komillik, komil inson, o'zligini bilish, Oллоhni tanish, maorif, ma'rifat, haqiqatga intilish va hokazo. Ezgulikni anglatuvchi tushunchalar bilan birga uning muqobili bo'lgan yovuzlik, vijdonsizlik, axloqsizlik, joxillik, yovuzlik, baxillik va hokazo tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki bu tushunchalarsiz inson ezgulikni, ma'naviyatni teran o'rgana olmagan.

Yuqoridagi tushunchalarning hammasi inson ma'naviy dunyosining turli tomonlarini aks ettiradi. Inson umumiy tushunchalardan kelib chiqib xususiy tushunchalarni tahlil qilgan va undagi ba'zi bir qonuniyatlarni, ularni o'ziga xos bo'lgan tarzda namoyon bo'lishini aniqlagan. Ba'zan esa, xususiy tushunchalarni tahlil qilish, o'rganish jarayonida umumiy tushunchalarni yanada konkretlashtirgan va boyitgan. Bu ayniqsa tadqiqotchi olimlarga, adib-mutafakkirlarga xos. "Ma'naviyat" tushunchasi yordamida komil insonning ma'naviy fazilatlarini qanday bo'lishi lozimligi, unga qo'yiladigan talablar, sifatlar o'z-o'zini anglashi va bilishida, namoyon etishida aniqlangan. O'z navbatida komil inson haqidagi tadqiqotlar, xulosalar "ma'naviyat" tushunchasini boyitgan. "Ma'naviyat" tushunchasining boshqa tushunchalar bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida ham yuqoridagi fikrni aytish mumkin. Masalan: ma'naviyat va nafosat, ma'naviyat va axloq, ma'naviyat va imon-e'tiqod, ma'naviyat va din, ma'naviyat va siyosat, ma'naviyat va huquq va hokazo.

"O'zlikni anglash" – "identlik (ayniyat)" tushunchasi ma'naviyat tarkibiga kiruvchi kategoriya sifatida namoyon bo'ladi va inson ma'naviy olamini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zlikni anglashning shakllanish jarayoni va omillari Sharq

hamda G'arb allomalari tomonidan har taraflama o'rganilgan. Sharq allomalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Nasafiy, Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalar o'zlikni anglashning ruhiy, botiniy jihatlarini, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam va odam munosabatini bilish asosi ekanini kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. G'arb allomalaridan Suqrot, F.Bekon, T.Gobbs, R.Dekart, F.Nitsche, Z.Freyd, E.Erikson, V.Gegel, I.Kant, N.Berdyayev va boshqalar o'zlikni anglashning zohiriy jihatlarini, uni ijtimoiy borliq, makon va zamonning faol ijodkorligi omili sifatida o'rganganlar. Jumladan, yangi davr ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarida xususan, Dekart qarashlarida o'zlikni anglash "cogito ergo sum" tushunchasi orqali ifodalangan. Dekart "Agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo'lsam, men o'zimni subyekt sifatida mavjudligimni his qilaman"[1:704], degan. Mazkur fikrdan o'zlikni anglash faqat individual hodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi balki, jamoaviy yoki ma'lum bir xalqning faloyati bilan bog'liq bo'ladi.

O'zlikni anglash insonga xos bo'lib, hamma davrlarda ham u yoki bu darajada mavjud bo'lgan. Ibtidoiy inson o'zini tabiatning bir bo'lagi deb his qilsa-da, o'zini hayvonot bilan tenglashtirmagan. Ibtidoiy urug'-jamo'a ham o'zini boshqalardan keskin farqlagan, o'z asotiriga ("mafurasiga"), totemiga, e'tiqodiy urug'boshisi, sig'inadigan sanami va ramziga ega bo'lgan. O'zlikni anglash individual va jamoaviy (milliy) darajalarda namoyon bo'ladi. Inson va jamiyat rivojlanishi jarayonida o'zlikni anglashi kuchayib, teranlashib, rang-baranglashib boradi. Urug'-jamoalardan qabilalarga, qabilalardan elatlarga, elatlardan millatlarga o'tish har ikkala darajada ham o'zlikni anglashni yangi tarixiy bosqichga ko'targan.

O'zlikni anglash yangi bilimlarga, yangi mehnat ko'nikmalariga yoki umumiy qilib aytilsa, yaratuvchilikka intilish va irodasini namoyon etib, uni kuchaytirishdir [2]. O'z navbatida G'arbda Industrial va postindustrial jamiyatda inson ongi va tafakkurining o'sishi, ilm-fan va texnikada erishgan yutuqlari jamiyat turmush tarzini o'zgarishi bilan birgalikda o'zlikni anglash borasidagi qarashlarini o'zgarishiga ham olib keldi. Inson o'zligini anglashda, birinchi galda, o'zini ma'lum tarixiy, etnik, lisoniy, madaniy, e'tiqodiy, siyosiy birlikning a'zosi sifatida anglaydi [2]. Ishlab-chiqarishda va sanoatda qo'l mehnatini o'rini texnika egallashi; sanoatlashgan hududlarda geografik nuqta nazardan o'ziga xos qadriyat va an'alariga, turlicha qarashlariga ega bo'lgan chekka qishloqlarda yashovchi insonlarning zavod-fabrikalarda ishlash uchun ko'chib kelishi va umumiy ishchilar shaharchalarining tashkil topishi; natijada asta sekinlik bilan ma'naviy ong va madaniy turmush tarzida umumiy birxillashish – madaniyatlar ommalashuvi yuzaga kelishi urbanizatsiya jarayonlari tezlashtirdi hamda tezroq taraqqiyot etishiga olib keldi. O'zlikni anglashda esa ma'lum bir hududga, qon-qarindoshlar jamoasiga tegishlilik masalasi o'rini sanoatlashgan shaharliklarga, umumiy ishchilar jamoasiga, kasaba uyushmalariga yoki mulk egalarga talluqliylik ko'rinishida o'zgardi.

Bu davrda Sharqda tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda identlik masalasi o'zina rang-baranglik kasb etib murakkabroq kechdi. Diniy identlik va etnik-milliy identlik o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud edi. Bir nechta etnik qatlam va millatlar tomonidan bir dinga e'tiqod qilinadi. Masalan, islom diniga e'tiqod qilinuvchilar o'zlarini umumiy nom bilan "musulmonlar" deb bilishsada, lekin etnik jihatdan o'zlarini turklar, forslar, arablar, o'zbeklar, qozoqlar va hokazo ga ajratishlari. Diniy ayniyat borasida ham tafovutlar mavjud edi (shialar va sunniylar, mazhablar o'rtasidagi e'tiqodiy qarashlar). Yoki buddaviylik, hinduiylik dinlariga e'tiqod qiluvchilar orasida ham ko'rinishi mumkin bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlab ketish kerakki, g'arbda ham diniy e'tiqod borasida umumiylik mavjud (xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi turli millatlar va davlatlar) bo'lsada, yuqorida keltirib o'tilgan fan-texnika taraqqiyoti borasidagi sabablar identlik masalalarini nisbatan konkretlashtirgan.

Zamonaviy jamiyatda milliy identlik masalasi ancha o'zgardi. Endi diniy, hatto etnik identlik ba'zi hollarda birlamchi, asosiy belgilardan hisoblanmaydi. Milliy identlik fuqarolik bilan bir xil tushuniladi[2]. Bir davlatda yashovchi fuqarolar orasida turli millat va elat vakillari mavjud bo'lib o'zlarini o'sha davlat – millatga xos hisoblashadi: o'zbekistonlik, rossiyalik, amerikalik va boshqalar. Bu borada milliy identlik masalasida ham "milliy" tushunchasi keng ma'noda "davlat" tushunchasi mazmuni bilan anglaniladi.

O'zbekistonda ham 130 dan ziyod millat va elatlar bir jipslikda, ma'naviy bir butunlikda yashab kelishmoqda. Tili, qadriyati, urf-odatlari, e'tiqodiy qarashlari bir-biriga yaqin bo'lgan etnik qatlamlar bilan bir qatorda (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, arab, turkman, turk, ozarbayjon, tatar...) madaniyati, tili, etiqodi bir-biridan farq qiluvchi millatlar (rus, ukrain, hind, yahudiy, koreys...) ham yakdil maqsadlar va qarashlar doirasida bir xalq sifatida o'zlarini o'zbekistonlik deb bilishadi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi o'zbek xalqining hayotida milliy o'zlikni anglash yo'lidagi yangi buyuk qadam bo'ldi. Istiqolning dastlabki yillarida xalqimizning xolis va haqqoniy tarixi yaratilib, o'tmish tarixi chuqur o'rganildi. Ma'naviy me'ros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar, urf-odat, an'ana, hayotiy qadriyatlar qayta tiklandi[3]. Zaminimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, diniy, dunyoviy va qomusiy olimlarning qadamjolari obod etildi, nomlari ulug'lanib, yubileylari o'tkazilyapti. Ajdodlarimiz nomlari Shahar, ko'chalarda berilib, stipendiya va ordenlar ta'sis etilmoqda, ma'naviy xazinalari turli tillarga, shu jumladan, o'zbek tiliga ham tarjima qilinyapti.

Tarixiy yodgorliklarimizning to'rt mingdan ziyodi umumdunyo merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritildi. Ajdodlarimiz tafakkurining mahsuli hisoblanmish eng qadimgi yozuv va toshbitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonamiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda o'z aksini topgan tarix, fan, adabiyot va san'at sohasiga oid qimmatbaxo asarlarning o'zlikni anglashdagi o'rni beqiyos. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, ta'lim sohasidagi tub islohotlar, "Talim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ning qabul qilinishi va o'z tariximiz bilan bir qatorda jahon xalqlari tarixining o'rganilishi, jahon tajribasining o'zlashtirilishi, zamonga hamnafas ruh – milliy o'zlikni anglashimizni teranlashtirmoqda.

Tarixiy xotira millatga kuch-qudrat bag'ishlaydi, hayotning og'ir sinovlarini munosib yengib o'tishga, o'zligini saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun ham o'zga xalqlarni tobe etishga uringan bosqinchilar xalqni ana shunday qudrat manbaidan ayirishga, shahar va tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklarni va ajdodlarimiz ma'naviy merosidan mahrum etish orqali tarixiy xotirani zaiflashtirishga harakat qilganlar. Chor Rossiyasi generali Skobelev shunday degan: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini san'atini, tarixini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi"[4]. Milliy o'zlikni anglash millat uchun muhim xususiyat bo'lib, u bevosita tarix bilan bog'liq va millatning kelajagini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Tarix – bamiyoli ko'zgu. Ammo o'tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo'lishning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi.

Hozirda mavjud ko'plab o'quv qo'llanma va darsliklarda milliy o'zlikni anglash masalasida faqat o'tmishda erishgan yutuqlarimizga urg'u berilmoqda, natijada kamchiliklarimizga e'tibor berilmay qolib ketyapti. O'z-o'zini anglash – bu xalqning, millatning o'z tarixiy taraqqiyot yo'lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini bilish, undan faxrlanish, iftixor tuyg'ularini his qilish bilan birga o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarash, o'z kamchiliklarini anglab yetish, uni tuzatishga harakat qilish, mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch-g'ayratini ishga solish, o'z oldiga istiqbolli maqsadlarni qo'yish va unga tomon to'g'ri faoliyat yuritish, uzoqni ko'ra olish hamdir. O'zlikni anglashda faqat faxr-iftixor, g'ururlanishning o'zi

kamlik qiladi, o'z kamchilik va xatolarimizni anglab, uni tuzatish, kelgusida takrorlamaslik, tarixdan saboq chiqargan holda yashash, o'zimizning real imkoniyatlarimizni anglab, hayotga tatbiq etish masalasiga ham e'tibor qaratishimiz lozim. "Tarixiy maqsadlar ko'lami keng, inson shaxsi barkamol bo'lsa, u vijdonan mehnat qilsa, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol ishtirok etsa, jamiyatimiz shu qadar tez rivojlanadi va mustahkamlanadi"[5].

I.Karimov: "Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"[6] , - deb ta'kidlagan edi. Davlatning qanchalik rivojlanib taraqqiy etishi unda yashaydigan xalqning nechog'lik milliy o'zligini anglaganiga bog'liq. Yuksak rivojlangan jamiyat ham o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Mansabparastlik, manmanlik, tarafkashlik, millatchilik – o'zligini anglagan insonga begona. Milliy o'zligini anglagan inson xalqni birlashtiradi, birdamlikka chorlaydi.

Milliy o'zlikni anglash barcha millat va elatlarning qadriyatlarini, tili, dini, urf-odatlarini hurmat qilish, asrab-avaylash, rivojlantirishga ko'maklashadi va umume'tirof etilgan qoidalarga tayanadi. Hozirgi zamon tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan bir sharoitda o'zbek xalqi o'zini anglashi, eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug'vor maqsadlar bilan yashash[7], ularda insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy iftixor hissi bilan bir qatorda, qat'iyat, mas'uliyat, burchga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish, yosh avlodni e'tiqodini mustahkam barkamol inson etib tarbiyalash – Yangi O'zbekiston taraqqiyot talabi, hayotiy ehtiyojdir. "Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo, o'zini o'zgartirishi lozim. Buning uchun esa, aniq maqsad, tolmas iroda va doimiy izlanish kerak" degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo'lishi lozim"[7].

Xulosa. Milliy darajada o'zlikni anglash qator omillar bilan bog'liq. U avvalo milliy konsolidatsiyaning mustahkamlanishiga, millatning o'z o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi to'g'risidagi tasavvurlariga bog'liq. Guruhbozlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik yoki siyosiy tarafkashlik tufayli yaxshi jisplashmagan xalq o'zligini teran anglay olmaydi. Chunki millat darajasida o'zlikni anglash nafaqat tarixni bilish bilan, shuningdek, tarixdan to'g'ri va oqilona xulosa chiqargan holda milliy manfaatlarini teran idrok etish bilan ham bog'liq. Kelajak manfaatlarini haqida tasavvuri xira bo'lgan xalq o'zligini teran anglamagan hisoblanadi. Chunki milliy o'zlikni anglash muayyan maqsadga intilish demakdir..

ADABIYOTLAR

1. "Ma'naviyat asosiy izohli luga't" "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010-y.704 b
2. Эркаев, Абдурахим. Маънавиятшунослик. 1-китоб [Матн]. Маънавият анталогияси ва феноменологияси / А. Эркаев. – Тошкент: «Маънавият», 2018. 332 – 333.
3. Эркаев Абдурахим. Янги Ўзбекистон: миллий ғоя ҳақида ўйлар [Матн] / А. Эркаев. – Тошкент: «Маънавият», 2023. – 7.
4. Yuldasheva M.B. va Murtazaev D.B. "O'ZBEKISTON TARIXI" fanidan bakalavriat yo'nalishi I-kurs talabalari uchun (tarix mutaxassisligidan tashqari) Ma'ruzalar matni. 2008. <https://fayllar.org/ozbekiston-tarixi-fanidan-v3.html>
5. J.Tulenov, G.Tulenova, K.Tulenova "Falsafa", Toshkent, Fan va texnologiya, 2006 yil. 170 bet.
6. И.А.Каримов "Тарихий хотирасиз келажак йўқ".Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7 Т.Ўзбекистон 1998-й.131-133б
7. Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКISTON СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. 6-9 б.